

O'zbekiston Respublikasida qurilish


2026-yilning yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi

2026-yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 104 943,7 mlrd so'mni tashkil qildi. 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 114,5 foizni tashkil etdi.

1-rasm. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



1-jadval. Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari, 2026-yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, 2025-yilning mos davriga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi¹	104 943,7	114,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 177,7	151,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	5 335,2	120,3
Buxoro	7 218,9	126,2
Jizzax	3 249,7	127,2
Qashqadaryo	6 697,8	119,1
Navoiy	4 974,0	120,4
Namangan	5 361,9	120,0
Samarqand	6 625,1	113,1
Surxondaryo	5 313,3	120,9
Sirdaryo	2 220,8	123,3
Toshkent	10 704,9	111,9
Farg'ona	6 874,8	115,9
Xorazm	5 331,4	132,4
Toshkent shahri	28 025,2	109,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi:

- bino va inshootlar qurilishining qurilish ishlarining umumiy hajmidagi ulushi 70,4 foizni, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 116,9 foizni tashkil etdi.
- fuqarolik qurilishi loyihalarining ulushi 20,1 foizni, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 114,0 foizni tashkil etdi.
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,5 % ulushni va 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 99,9 % ni tashkil etdi.

2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, 2026-yil yanvar-may



2-jadval. 2026-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	16 366,9	8 062,5	2 970,4
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	122,9	124,0	108,3
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	30 822,4	13 031,2	6 993,9
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	116,0	108,5	96,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	26 692,6	3,8	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	114,6	1 498,5	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmining tarkibi

3-rasm. Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, 2026-yil yanvar-may




2026-yilning yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 27 399,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ularning umumiy hajmdagi ulushi 26,1 %ga, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 121,5 %ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 48,5 %ni tashkil etdi. Ular tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 50 847,5 mlrd so'mni, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan qayd etilgan o'sish sur'ati esa 111,0 %ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor ulushi 25,4 %ni tashkil etdi. Uning joriy narxlardagi hajmi 26 696,4 mlrd so'mni, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan qayd etilgan o'sish sur'ati esa 114,6 %ni tashkil qildi.

4-rasm. Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari, 2026-yil yanvar-may




3-jadval. Korxona turlari va hududlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi, 2026-yilning yanvar-may oylari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, 2025-yilning mos davriga nisbatan foizda		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
O'zbekiston Respublikasi²	27 399,8	50 847,5	26 696,4	121,5	111,0	114,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 899,8	2 259,1	1 018,8	670,4	102,5	108,8
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	767,9	3 022,2	1 545,1	167,8	115,8	113,0
Buxoro	1 521,7	3 159,9	2 537,3	209,9	114,9	113,0
Jizzax	533,6	1 866,7	849,4	162,9	125,4	114,9
Qashqadaryo	1 586,9	3 144,4	1 966,5	145,2	112,3	113,6
Navoiy	1 243,8	2 068,9	1 661,3	149,8	115,9	109,7
Namangan	720,6	2 193,2	2 448,1	203,1	108,9	116,7
Samarqand	1 249,0	4 550,0	826,1	184,3	103,8	103,5
Surxondaryo	660,2	2 833,1	1 820,0	142,7	121,2	114,2
Sirdaryo	461,0	1 358,1	401,7	151,1	118,6	114,3
Toshkent	2 926,6	4 375,6	3 402,7	133,1	102,1	110,5
Farg'ona	1 285,4	3 512,9	2 076,5	127,2	111,6	117,3
Xorazm	1 104,2	1 874,6	2 352,6	235,5	113,8	123,1
Toshkent shahri	9 606,1	14 628,8	3 790,3	103,6	110,8	120,8

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori hajmi Toshkent shahrida (9,6 trln so'm), Toshkent viloyatida (2,9 trln so'm) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,9 trln so'm) kuzatildi.

5-rasm. Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlarining ulushi, 2026-yilning yanvar-may oylari



IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlari qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D. Xidiraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

